O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI SIRDARYO VILOYATI HOKIMINING

QARORI

2022 - yil 10 - dekabr 421-9-0-Q/22 Sirdaryo viloyati hokimligi

Sirdaryo tumani Mirzo Ulug‘bek mahalla fuqarolar yig‘ini hududidagi Ko‘rkam diyor ko‘chasi bo‘yida ichimlik suv qudug‘i, suv minorasi va elektr jihozlari saqlanadigan bino qurish, transformator o‘rnatish va himoya zonasi uchun doimiy foydalanishga yer uchastkasi ajratish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 6-avgustdagi 435-son qarori, 2021-yil 27-avgustdagi “Yer uchastkalarini davlat va jamoat ehtiyojlari uchun doimiy foydalanishga ajratishning ma’muriy Reglamentini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 543-son qarori va Xalq deputatlari Sirdaryo viloyati Kengashining 2022-yil 10-oktabrdagi VI-38-127-9-0-K/22-sonli qarori asosida hamda yer ajratish materiallari vakolatli organlar ijobiy xulosalari bilan kelishilganligini inobatga olib, O‘zbekiston Respublikasi “Yer kodeksi”ning 5, 20-moddalari va “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunning 6, 25-moddalariga muvofiq qaror qilaman:

1. Sirdaryo viloyati hokimligining qurilish bo‘yicha “Yagona buyurtmachi xizmati” injiniring kompaniyasining 2022-yil 13-oktabrdagi 01/1565-sonli xati qanoatlantirilsin va viloyatdagi tegishli tashkilot va korxonalarning ijobiy xulosalari ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. Sirdaryo viloyati hokimligining qurilish bo‘yicha “Yagona buyurtmachi xizmati” injiniring kompaniyasiga, Sirdaryo tumani, J.Mamanov massivi, Mirzo Ulug‘bek mahalla fuqarolar yig‘ini, Ko‘rkam diyor ko‘chasi bo‘yidan ichimlik suv qudug‘i, suv minorasi va elektr jihozlari saqlanadigan bino qurish, transformator o‘rnatish va himoya zonasi uchun, tuman hokimligi zaxira yer fondidagi qishloq xo‘jaligida foydalanilmaydigan boshqa yerlardan 1724231/B-17240 unikal lot

raqamli 25 m x 25 m o‘lchamda 0,0625 gektar yer uchastkasini davlat va jamoat ehtiyojlari uchun doimiy foydalanishga ajratilsin.

3. Sirdaryo viloyati hokimligining qurilish bo‘yicha “Yagona buyurtmachi xizmati” injiniring kompaniyasi (N.Xudoynazarov)ga:

ichimlik suv qudug‘i, suv minorasi va elektr jihozlari saqlanadigan bino qurish, transformator o‘rnatish va himoya zonasi bo‘yicha belgilangan tartibda loyiha-smeta hujjatlarini ishlab chiqib, ekspertizadan o‘tkazilishi hamda qurilish ishlarini o‘z muddatida amalga oshirish;

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 27-avgustdagi 543-son qarorining 31-bandi talablari asosida Davlat kadastrlari palatasi hududiy boshqarmasi, Qurilish bosh boshqarmasi hamda “O‘zGAShKLITI” DUK loyiha-qidiruv tashkiloti filiali bilan birgalikda yer uchastkasi chegaralarini joyida (naturada) belgilanishini ta’minlash va yer uchastkasiga bo‘lgan huquqni davlat ro‘yxatidan o‘tkazish majburiyatlari yuklatilsin.

4. Davlat kadastrlari palatasi Sirdaryo viloyati boshqarmasi (B.Minasipov) yer uchastkasiga bo‘lgan huquqni davlat ro‘yxatidan o‘tkazsin hamda viloyat yer hisobotiga tegishli o‘zgartirishlar kiritsin.

5. Ushbu qarorning bajarilishini nazorat qilish viloyat hokimining o‘rinbosarlari A.Karimov va V.Ibadullayev zimmasiga yuklatilsin.

Sirdaryo viloyati hokimi v.b **A.Maxmudaliyev**